

QO'SHTEPA TUMANI SUV RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA OQILONA FOYDALANISH

Abdurahimov Fazliddin Homidjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti

II bosqich magistranti

Annotatsiya:

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida ko'plab dasturlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish uchun, ko'plab investitsiyalar jalb qilindi.

Albatta, bunday muammolar bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Hozirgi kunda mamlakatimizning ko'plab hududlarida suv tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda, bunday muammolarni keng qamrovda avj olmasligi uchun hozirdan suvdan foydalanishda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni amalda qo'llash talab qilinadi. Qo'shtepa tumani ham qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirishi lozim.

Kalit so'zlar: texnologik usul, tutchilik, pillachilik, Yozyovon cho'li, sho'rlangan hududlar, yashil hudud dasturi.

Qo'shtepa tumanining qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslarining ahamiyati juda kattadir tuman suvga bo'lgan ehtiyojini, asosan, Katta Farg'ona kanali orqali qondiradi. Shu bilan birga, aholi iste'molidagi suvlarning asosiy qismi yer osti suvlari sanaladi.

Qo'shtepa tumaniga Yozyovon cho'lining yaqin ekanligi tuman tabiat kompleksiga ham ta'sir ko'rsatgan. Sababi, Yozyovon cho'lining sho'rlangan tuproqlari Qo'shtepa tumani yerlariga ham yetib kelgan.

Qo'shtepa tumanining umumiy yer maydoni 24 771 gektarni tashkil qiladi, shundan, ekin maydonlari: 20 145 gektarni tashkil qiladi, boshqa yer maydonlari 18 118 gektarni tashkil qiladi. Shu bilan birga, paxta maydonlari egallagan yerlar 6890 gektar, g'alla maydonlari egallagan yerlar 8000 gektar, boshqa ekin maydonlari egallagan yerlar 1500 gektarni tashkil qiladi.

Qo'shtepa tumanida meliorativ holati yomon bo'lgan yerlar ham katta maydonni egallaydi. Bunday yerlarning umumiy maydoni 79 gektarni tashkil qiladi. meliorativ holati yomon yerlarni maydonining keng tarqalishiga asosiy sabab, yerlardan maqsadsiz yaqin ekanligi va isrofgarchilik bilan foydalanish, Yozyovon

cho'llarining, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvning isrof qilinishi sabab bo'lmoqda.

Qo'shtepa tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarni tejamkorlik bilan ishlatish uchun bir qancha dasturli ishlarni amalga oshirish lozim.

Bularga: uzoq masofaga olib boriladigan suvlarni lotoklar yoki quvurlar yordamida amalga oshirish lozim.

Sababi, agar suvlar shunday yo'l bilan sug'orishda foydalanilsa suvlar yerga shimilishining va bug'lanishining oldi olinadi.

Bundan tashqari, suv resurslaridan tadrijiy foydalanish uchun hokimlik tomonidan "yo'l xaritasi" ishlab chiqarilishi lozim. Hozirgi kunda suvga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda, biroq, suv resurslari esa kamayib bormoqda suvni ko'p talab qilinish esa kelajakda aniq prognoz hisoblanadi. Chunki, mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, Qo'shtepa tumanida aholi soni va uning ehtiyojlari yildan yilga ortib bormoqda, buning natijasida suv resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. kelajakda suv bilan bog'liq muammolar kelib chiqmasligi uchun suv resurslarini hozirdan tejash lozimdir.

Qo'shtepa tumanida yer resurslaridan, asosan, quyidagi maqsadlarda foydalaniladi.

Sabzavotchilik, polizchilik- 1009 gektar.

Bog'dorchilik- 1922 gektar.

Chorvachilik- 1845 gektar.

Parrandachilik- 52 gektar.

Baliqchilik- 85 gektar.

Quyunchilik- 39 gektar.

Tutchilik- 152 gektar.

Terakchilik- 7 gektar.

Boshqa yo'nalishlar- 346 gektar.

Kartoshka ekish rejasi- 860 gektar.

Sabzi ekish rejasi- 619 gektar.

Piyoz ekish rejasi- 35 gektar.

Soya ekish rejasi- 960 gektar.

Tut ekish rejasi- 1000 000 dona.

Yashil maydon bo'yicha daraxt ekish rejasi- 398 000 dona.

Yuqorida ko'rinib turibdiki, Qo'shtepa tumanining katta qismi qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanish uchun aholiga xizmat qilmoqda. Demak suv resurslari ham shunga monand ravishda ko'p miqdorda sarf qilinadi. Suvdan tejab foydalanish kelajakda suv va boshqa muammolar yuzaga kelmasligi uchun qo'yilgan asosiy qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni xarid qilish va ulardan foydalanish tizimiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "PQ-2717 son Qarori 2017-yil 6-yanvar".
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda) 2017-yil 6-fevral.
3. Ahmadaliyev Yu. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. Toshkent. 2014, 340 b.
4. Қодиров Э.В. ва б. Табиий муҳитни муҳофазалашнинг геоэкологик асослари. – Тошкент, "Ўзбекистон", 1999.
5. Рафиқов А. А. Географик прогнозлаштириш асослари. – Тошкент, 2003.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги "Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" 6024-сонли фармони. Тошкент, 2020.
7. Урунов И. Атроф-муҳитни муҳоваза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш соҳасидаги фаолиятлар. -Т.: 2010
8. Хасанов. И.А., Гуломов. П.Н, Ўзбекистон табиий географияси – Т.: 2006
9. Хасанов И.А., Гуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент, 2007.
10. Хасанов И.А., Гуломов П.Н. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент, 2002.
11. Farg'ona viloyati o'lkashunoslik atlas. Farg'ona- 2011-yil.
12. Qo'shtepa tumani statistika qo'mitasi ma'lumoti.
13. www. ziyo.net
14. www.uzstat.uz